

**“ISLOM MOLİYASINING HUQUQIY TABIATI: FIQH AL-MUOMALOT
TAMOYILLARI VA ZAMONAVIY HUQUQ TIZIMLARIDAGI O‘ZIGA XOSLIK”**

Malikov Sharifjon O‘ktam o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

Haydarov Javohir Shavkat o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Imomov Bahridin Panjiyevich

*Toshkent davlat transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrasida katta
o‘qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada islom moliyasining huquqiy tabiati fiqh al-muomalot “muomala fihi” tamoyillari asosida ochib beriladi. Maqolada islom moliyasining asosiy tamoyillari - riba, g‘aror va maysir taqiqlari, risklarni taqsimlash va adolat printsiplari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy huquq tizimlarida “romana-german va anglo-sakson oilalarida” islom moliyasining integratsiyasi va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil 27-martda qabul qilingan O‘RQ-1126-sonli Qonun misolida milliy huquq tizimida islom moliyasining huquqiy moslashuvi va dual banking tizimining joriy etilishi tahlil etiladi. Natijada, O‘zbekiston sharoitida islom moliyasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: *Islom moliyasi, fiqh al-muomalot, Islom huquqi “fiqh”, sudxo‘rlik “riba”, qimor o‘yinlarini “maysir”, Riba “Foiz”, Shariat kengashi, dual bank, Anglo-sakson huquq, Romana-german huquqi “kontinental”, “moliyaviy vositalar”.*

Abstract

This article reveals the legal nature of Islamic finance based on the principles of fiqh al-muamalat “jurisprudence of transactions”. The article analyzes the basic principles of Islamic finance - the prohibitions of riba, gharar and maysir, the principles of risk sharing and justice. It also examines the integration and specific features of Islamic finance in modern legal systems “in the Romano-Germanic and Anglo-Saxon families”. The example of the Law No. O‘RQ-1126 adopted in the Republic of Uzbekistan on March 27, 2026 analyzes the legal adaptation of Islamic finance and the introduction of a dual banking system in the national legal system. As a result, practical proposals are made for the development of Islamic finance in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: *Islamic finance, fiqh al-muamalat, Islamic law “fiqh”, usury “riba”, gambling “maysir”, Riba “Interest”, Sharia Council, dual bank, Anglo-Saxon law, Romano-Germanic law “continental”, “financial instruments”.*

Fiqh al-muomalat tamoyillari va islom moliyasining huquqiy tabiati

Fiqh al-Muamalat - bu ijtimoiy va moliyaviy bitimlarni tartibga soluvchi, o‘zaro munosabatlarni, savdo va mulkiy bitimlarni shariat tamoyillariga muvofiq tartibga soluvchi Islom huquqi “fiqh” sohasi. U ixtiyoriy, axloqiy va shaffof bitimlarga qaratilgan bo‘lib, adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun sudxo‘rlik “riba”, haddan tashqari noaniqlik “g‘arar” va qimor o‘yinlarini “maysir” qat‘iyan taqiqlaydi.¹⁰

Islom moliyasining huquqiy tabiatini belgilovchi asosiy tamoyillar quyidagilar bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va moliyaviy bitimlarning Shariatga muvofiqligini ta‘minlaydi:

1. Riba “Foiz” taqiqlanishi - islom moliyasining eng markaziy va muhim tamoyili. Riba - pulni puldan ortiqcha qaytarish yoki qarz berishda kafolatlangan daromad olishdir. U ikki turga bo‘linadi:

- “Riba an-nasi‘a” qarz foizi - muddatli qarzda qo‘shimcha to‘lov.

- “Riba al-fadl” savdodagi ortiqcha - bir turdagi tovarlarni bir-biriga teng bo‘lmagan miqdorda almashish. Riba taqiqlanishining asosiy sababi - ijtimoiy adolatsizlik, boylikni bir qo‘lda to‘plash va kambag‘allarni ekspluatatsiya qilishning oldini olishdir. Islom moliyasida foiz o‘rniga risklarni taqsimlash printsipi qo‘llaniladi. Masalan, bank mijozga pul qarz bermaydi, balki tovarni o‘zi sotib olib, mijozga marja bilan sotadi yoki birgalikdagi korxonaga sarmoya kiritadi.

2. “G‘arar” ortiqcha noaniqlik va “maysir” qimor taqiqlanishi - shartnomalar aniq, shaffof va oldindan ma‘lum bo‘lishi shart. G‘arar - kelajakdagi natija noma‘lum bo‘lgan bitimlar lotereya yoki spekuliyativ derivativlar. Maysir esa qimorga o‘xshash, bir tomonning foydasi ikkinchi tomonning zarari hisobiga bo‘ladigan faoliyatdir. Shuning uchun islom moliyasida barcha shartnomalar aniq narx, muddat, hajm va shartlarni o‘z ichiga olishi kerak. Bu tamoyil moliyaviy bozorda ishonch va shaffoflikni ta‘minlaydi.

3. Adolat va axloq tamoyili - barcha moliyaviy munosabatlar adolatli, halol va jamiyat manfaatiga xizmat qilishi lozim. Islom moliyasi nafaqat daromad olishni, balki ijtimoiy mas‘uliyatni ham birinchi o‘ringa qo‘yadi. Zakat boylikning 2,5% ini xayriya qilish, sadaqa va qard hasan foizsiz yordamchi qarz kabi mexanizmlar moliya tizimining ijtimoiy adolatini ta‘minlaydi..

¹⁰ <https://zulkiflihasan.wordpress.com/wp-content/uploads/2008/06/fiqh-muamalat-part-i1.pdf>
Fiqh al-muomalat tamoyillari

“fiqh al-muomalot asosidagi moliyaviy munosabatlar” shartnoma huquqiga asoslanadi va “gibrid” xususiyatga ega. Ya’ni, u milliy fuqarolik huquqi shartnoma erkinligi printsipli doirasida amalga oshiriladi, ammo har bir bitim Shariat kengashi tomonidan tasdiqlanishi shart. Shariat kengashi - bu mustaqil ulamolar va mutaxassislar guruhi bo’lib, operatsiyalarning Shariatga muvofiqligini tekshiradi va fatvo beradi.

Islom moliyasida qo’llaniladigan asosiy shartnomalar “moliyaviy vositalar” quyidagilar:

- **Murabaha** - bank tovarni o’zi sotib olib, mijozga belgilangan marja bilan sotadi. Narx va marja oldindan aniq bo’ladi, riba yo’q.

- **Musharaka** - birgalikdagi korxonalar. Bank va mijoz sarmoya kiritib, foyda va zarar birgalikda taqsimlanadi.

- **Mudaraba** - investitsiya hamkorligi. Bank pul beradi, mijoz boshqaradi. Foyda taqsimlanadi, zarar bankka tegadi.

- **Ijara** - ijaraga berish. Bank mulkni sotib olib, mijozga ijaraga beradi, oxirida mulk mijozga o’tishi mumkin.

- **Sukuk** - islomiy obligatsiyalar. Real aktivlarga bog’liq bo’lib, foiz emas, aktivdan tushadigan daromad asosida bo’ladi.

Bu shartnomalar fuqarolik huquqi normalari O’zbekiston Fuqarolik kodeksining shartnoma haqidagi moddalari bilan uyg’unlashadi, ammo ularning huquqiy kuchini Shariat talablari belgilaydi. Natijada, islom moliyasi huquqiy jihatdan mustaqil, ammo milliy qonunchilik bilan moslashuvchan tizim sifatida shakllanadi.

Ushbu tamoyillar islom moliyasini oddiy foizli moliyadan tubdan farqlaydi va uning huquqiy tabiatini belgilaydi: u nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan huquqiy institutdir.

Zamonaviy huquq tizimlaridagi o’ziga xoslik

Zamonaviy huquq tizimlarida islom moliyasi ikki asosiy yo’nalishda rivojlanmoqda: to’liq shariatga asoslangan yagona tizimlar va “dual” ikki tomonlama banking tizimlari. Bu farq huquq oilalarining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Islom moliyasi fiqh al-muomalot tamoyillariga asoslangan bo’lsa-da, uni milliy qonunchilikka moslashtirish har bir huquq tizimida turli mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy muammo - shariat talablari riba, g’aror taqiqlari bilan milliy fuqarolik va bank huquqi normalari o’rtasidagi uyg’unlikni ta’minlashdir.

Anglo-sakson huquq tizimida islom moliyasining o’ziga xosligi. Anglo-sakson “umumiy huquq - common law” tizimiga mansub mamlakatlarda Buyuk Britaniya, Malayziya, BAA islom moliyasi eng moslashuvchan va tez rivojlanmoqda. Bu tizimning asosiy afzalligi - shartnoma erkinligi printsiplining keng qo’llanilishi va sud pretsedentlariga asoslanishi. Shartnomalar oldindan qattiq kodifikatsiya qilinmaganligi sababli, murabaha, musharaka,

mudaraba va sukuk kabi islomiy shartnomalar oddiy fuqarolik shartnomalari sifatida qabul qilinadi. Shariat kengashlari esa qo‘shimcha nazorat organi vazifasini bajaradi va fatvo berish orqali bitimlarning shariatga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Romana-german huquq tizimida islom moliyasining integratsiyasi. Romana-german “kontinental” huquq tizimida Fransiya, Germaniya, Rossiya, O‘zbekiston qonunchilik kodekslarga Fuqarolik kodeksi, Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunlar asoslanadi. Bu tizimda islom moliyasini joriy etish qiyinroq, chunki kodekslar an’anaviy foizli “riba” moliyani asos qilib olgan. Shuning uchun maxsus qonunlar yoki kodekslarga o‘zgartirishlar kiritish talab etiladi. Fransiyada va Germaniyada islom moliyasi “islomiy oynalar” Islamic windows orqali cheklangan holda ishlaydi - alohida islomiy banklar emas, balki an’anaviy banklar ichida shariatga muvofiq mahsulotlar taklif etiladi.

O‘zbekiston romana-german huquq oilasiga mansub bo‘lib, “Fuqarolik kodeksi”ning 354-moddasi shartnoma erkinligini belgilaydi. Shu bilan birga, 2026-yil 27-martda Prezident tomonidan imzolangan O‘RQ-1126-sonli Qonun “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” mamlakatda dual banking tizimini huquqiy asosini yaratdi.¹¹

Qonunning asosiy yangiliklari quyidagilar:

- **Islomiy moliya operatsiyalari** aniq belgilandi: foydani taqsimlash sharti asosida mijozni moliyalashtirish, investitsiya depozitlari, agentlik shartnomalari va boshqa shariatga muvofiq vositalar murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, sukuk kabi.

- **Markaziy bank huzurida Islom moliyasi Kengashi** tashkil etildi. Kengash shariat standartlarini tasdiqlaydi, litsenziya berish va bekor qilishda ishtirok etadi, banklar faoliyatini nazorat qiladi.

- **Litsenziya mexanizmi** joriy etildi: alohida islomiy bank litsenziyasi yoki an’anaviy banklar uchun “islomiy darcha” ochish imkoniyati berildi. 10 dan ortiq tijorat banklari allaqachon islomiy mahsulotlar joriy etishga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

- **Soliq imtiyozlari**: Soliq kodeksiga o‘zgartirishlar kiritilib, murabaha marjasi bo‘yicha ba‘zi hollarda QQS qo‘llanilmasligi, investitsiya depozitlari daromadi soliqdan ozod qilinishi belgilandi.

- **Dual tizim**: An’anaviy banklar ham islomiy mahsulotlar taklif qilishi mumkin, bu esa bosqichma-bosqich joriy etishni osonlashtiradi. Rejaga ko‘ra, 2026-yilda kamida bitta bankda islomiy darcha ochiladi, 2030-yilgacha ikkita to‘laqonli islom banki tashkil etiladi.

¹¹ <https://lex.uz/uz/docs/-8099403>

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

Takliflar:

- Fuqarolik kodeksiga maxsus qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish orqali islomiy moliya shartnomalarining musharaka, ijara, sukuk huquqiy tabiati va nizolarni hal qilish mexanizmlarini aniq belgilash. Masalan, Shariat kengashi qarori bilan korporativ boshqaruv kengashi o‘rtasidagi ziddiyatda Markaziy bank huzuridagi Islom moliya kengashi yakuniy maslahat beruvchi organ sifatida ishtirok etishi mumkin.

- Oliy ta‘lim muassasalarida Toshkent davlat yuridik universiteti, Moliya instituti “Fiqh al-Muamalat”, “Islom moliyasi va korporativ boshqaruv” yo‘nalishlarida maxsus magistratura va qayta tayyorlash dasturlarini ochish. Islom Taraqqiyot Banki va Malayziya, BAA kabi tajribali mamlakatlar bilan hamkorlikda xalqaro sertifikat dasturlarini AAOIFI sertifikatlari joriy etish

- Bank va moliya tashkilotlari uchun majburiy malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni vaqtincha jalb qilish orqali “mentorlik” tizimini yaratish.

- Yangi qonun kuchga kirgandan keyin 2026-yil 29-iyundan bir yil ichida “Islom moliyasini rivojlantirish yo‘l xaritasi” ni ishlab chiqish va unda yuqoridagi muammolarni hal qilish bo‘yicha aniq muddat va mas‘ul tashkilotlarni belgilash.

Xulosa qilib aytganda, biz ko‘rib chiqqan ma‘lumotlar islom moliyasining huquqiy tabiati shunchaki diniy qoidalar yig‘indisi emas, balki asrlar davomida shakllangan va adolat tamoyillariga asoslangan murakkab fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimidir. Islom moliyasining huquqiy tabiati fiqh al-muomalot tamoyillariga - riba, g‘aror va maysir taqiqlari, adolat va risklarni birgalikda baham ko‘rishga asoslanadi. Ushbu tamoyillar moliyaviy bitimlarni nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham barqaror qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. Korporativ boshqaruv kodeksi <https://davaktiv.uz/ru/menu/kodeks-korporativnogo-upravlenija>
3. “Korporativ huquqning umumiy qoidalari” maqola Sherikbayeva Mushtariy Erkin qizi. Maqola <https://wordlyknowledge.uz/index.php/igro/article/download/950/1294/979>
4. B. Umarov, X. Atajanov. "**Korporativ huquq**" (2021). Mazkur qo‘llanma korporatsiya tushunchasi, ingliz va kontinental huquq tizimidagi farqlar hamda MCHJ va AJlarning zamonaviy huquqiy maqomi bo‘yicha ma‘lumotlar beradi.
5. H.R. Rahmonqulov, S.S. Gulyamov. "**Korporativ huquq**" (2008)

6. “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” <https://lex.uz/uz/docs/-8099403>

7. “Fiqh al-muomalot tamoyillari” <https://zulkiflihasan.wordpress.com/wp-content/uploads/2008/06/fiqh-muamalat-part-i1.pdf>

8. “O‘zbekiston respublikasida islom moliyasining huquqiy asoslarini yaratish masalalari” maqola <https://jurisprudence.tsul.uz/wpcontent/uploads/2022/08/Turaboyev-Ixtiyorjon-Qobilovich-1.pdf>

9. “Islom moliyasining rivojlanishida huquqiy va institutsional muammolari” maqola <https://cyberleninka.ru/article/n/islom-moliyasining-rivojlanishida-huquqiy-va-institutsional-muammolari>